
O'QUV-AMALIY SEMINAR BO'LIB O'TDI

Bugun Toshloq tumani hokimligida korxonalar va tashkilotlarning hujjatlar bilan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashga mas'ul bo'lgan xodimlar ishtirokida "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, "E-APP MUROJAAT" elektron dasturi va "edo.ijro.uz" ijro intizomi idoralararo himoyalangan yagona elektron tizimidan foydalanish va tizim orqali hujjatlarni yaratish yuzasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ishchi guruhi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijalariga bag'ishlangan o'quv-amaliy seminar o'tkazildi. Seminarda ma'ruzachilar tomonidan hujjatlarni elektron ko'rinishda yuritish, "E-APP MUROJAAT" tizimida ishlash tartibi, "ijro.gov.uz" dan foydalanish, ijro intizomi nazoratini normativ hujjatlar asosida olib borish, arxiv ishi yuritish tartibi xususida so'z bordi. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o'z vaqtida, to'liq va natijali ijro etilishini tahlil qilib borish lozimligi bildirildi. Shuningdek, tizim korxonalar tomonidan ijro intizomini ta'minlash yo'nalishida uchrayotgan tushunmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

2023-02-24 14:58:07